

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 29 (1628), 2026-yil 12-fevral, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Munosabat

O‘ZBEKISTON – POKISTON:

XALQLAR FAROVONLIGIGA XIZMAT QILAYOTGAN STRATEGIK SHERIKLIK

Siyosiy jarayonlar shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi sharoitda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar samaradorligi ko‘proq uzoq muddatli ishonch, o‘zaro manfaatlar uyg‘unligi va amaliy natijalarga bog‘liq bo‘lmoqda. Shu ma’noda, Prezidentimizning yaqinda Pokiston Islom Respublikasiga davlat tashrifi ikki mamlakat munosabatlari navbatdagi muhim va mantiqiy bosqichni boshlab berdi.

Markaziy va Janubiy Osiyoning yetakchi davlatlari bo‘lgan ushbu ikki mamlakat bir-birini strategik hamkor sifatida tobora aniq tasavvur qilyapti. So‘nggi yillarda Toshkent va Islomobod o‘rtasidagi siyosiy muloqot izchil faollashib, oliy darajadagi aloqalar muntazam va mazmunli tus oldi. Ayniqsa, 2021-yil iyulda Strategik sheriklik to‘g‘risidagi qo‘shma

deklaratsiya imzolangani ikki tomonlama munosabatlarni yangi sifat bosqichiga ko‘tardi. Ushbu hujjat hamkorlikni uzoq muddatli strategik maqsadlar asosida rivojlantirishga qaratilgan mustahkam institutsional poydevor bo‘ldi.

Davomi 2-beta

Buyuk o‘zbek yo‘li

O‘ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSAT BORASIDAGI POZITSIYASI

mintaqada va xalqaro miqyosda barqarorlikni ta’minlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining o‘tgan yil 16-noyabrda yitinchil Maslahat uchrashuvida Prezidentimiz bildirgan fikrlar yangi O‘zbekistonning mintaqaviy va global xavfsizlik masalalariga yondashuvini yaqqol namoyon etdi. Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda bugun barqaror o‘shish va farovonlik uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochilayotgani, mintaqada jadal taraqqiyot va samarali hamkorlik makoniga aylanib borayotganini ta’kidladi.

Mintaqamizning geosiyosiy joylashuvi, Sharq va G‘arbni bog‘lovchi muhim savdo yo‘lagi hamda yirik davlatlar o‘rtasidagi strategik bufer hudud sifatida xizmat qilishi O‘zbekistonning mintaqaviy munosabatlar va xavfsizlik masalasidagi mavqei oshiradi.

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatda mintaqaviy xavfsizlikni global xavfsizlik bilan uzviy bog‘liq holda ko‘radi. Mamlakatimiz yetakchisi tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida ochiq muloqot ta’minlangani, chegara masalalarining hal etilgani, suv, energetika va transport sohalarida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani aynan xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Davomi 3-beta



HAR BIR XONADONDA OBODLIK BO‘Y KO‘RSATMOQDA

Aholi bandligini ta’minlash va farovonligini oshirish, tadbirkorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash borasida berilgan imtiyoz va imkoniyatlar Rishton tumanidagi “Xurramobod” mahalla fuqarolar yig‘inidagi hayot tarziga o‘ziga xos o‘zgarish, yangiliklar olib kirdi. Mahalla ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududlardan biriga aylandi.

Mahalla fuqarolar yig‘inida ijtimoiy, iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida 30 dan ortiq mikro va makroloyiha amalga oshirildi, yangi tashabbuslar qo‘llab-quvvatlandi.

— Hududimizdagi 1146 xonadonda 4123 kishi istiqomat qiladi, — deydi mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Farhodjon Soliyev. —

Yil boshida “mahalla yettilligi” bilan har bir oilaning hayot tarzi, muammolari o‘rganilib, ishsiz 120 fuqaroga alohida e’tibor qaratildi. Ularning qiziqishi va imkoniyati har jihatdan qo‘llab-quvvatlandi.

Davomi 4-beta

ILM-FAN VA INNOVATSIYA UNDA AYOLLARNING O‘RNI BO‘LAKCHA

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Osiyo taraqqiyot banki hamda Jahon fanlar akademiyasi (TWAS) hamkorligida poytaxtimizda “SheSCIENCE 2026” Markaziy Osiyo olimlari xalqaro forumi tashkil etildi.

Tadbir davlat boshqaruvi organlari, xalqaro tashkilotlar, ilmiy muassasalar va oliy ta’lim tizimi vakillari, shuningdek, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston kabi davlatlardan 200 ga yaqin olimlari ishtirok etdi.

Forum mintaqada ilm-fan sohasida faoliyat yuritayotgan ayol-qizlarni birlashtirish, ularning salohiyatini oshirish va xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

Davomi 2-beta

Prezidentimiz raisligida joriy yil 15-yanvar kuni Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida Namangan viloyati hokimi har bir tumandagi bittadan maktabda Yaponiya ta’lim-tarbiya metodikasi bo‘yicha tajriba yo‘lga qo‘yilayotgani, maktablardagi moddiy-texnik baza mahalliy byudjet yordamida mustahkamlanayotgani to‘g‘risida axborot berdi.

Nuqtayi nazar



MILLATNI BIRLASHTIRUVCHI KUCH yoxud milliy tizimga tatbiq etilayotgan YAPON METODIKASI

Davlatimiz rahbari bu tashabbusni ma’qulladi. Haqiqatan, yaponiyalik bolalarning odob-axloqi, tarbiyasi, tartib-intizomi boshqacha. Yapon madaniyati, mentaliteti biznikiga yaqin. Shu ma’noda, ushbu taklifning qo‘llanishi muhim ahamiyatga ega.

Bugun davlatlarning haqiqiy kuch-qudrati shu mamlakatda yashovchi aholining tarbiyasi, xulqi, mas’uliyati, madaniyati, mehnatga munosabatida namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun ham yangi O‘zbekiston o‘z taraqqiyot strategiyasini inson qadri, ma’naviyati

va tarbiyasini markazga qo‘lganda amalga oshirmoqda. Ana shunday xayrli ishlardan biri rivojlangan davlatlarning tarix sinovlaridan o‘tgan tajribasini yurtimizda joriy etish bo‘lyapti.

Xalqimizning “Yetti o‘lchab, bir kes” degan maqoli bor. Shunga amal qilib, har qanday yutuq birdan barcha hududda tatbiq qilinmay, qayta-qayta sinab ko‘rilyapti. Chunki natijadorligiga ishonch komil bo‘lgachgina, tajribani kengaytirish lozim.

Davomi 5-beta

14-fevral — Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun

Qalayoti va ijodi – ibrat maktabi

O‘zbek xalqi tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk yurtdoshlarimiz ichida Zahiriddin Muhammad Bobur alohida o‘rin tutadi. U sarmazmun va barakali ijodi bilan jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk siymolardan biri.

U haqda taniqli urdu adibi Qamar Rayis “Bobur shaxsiyati va she’riyati” asarida bunday deydi: “Tabiat bu tog‘li Farg‘ona vodiysiga mislsiz husn ato etgan, Bobur uning shaydosi bo‘lgan. Tabiatning mana shu so‘lim go‘shasida Boburning shoirona tafakkuri kurtak

ochgan. Uning bog‘lari, chinorlari, shakardan shirin mevalarini ta’rif qilishdan bir soniya charchamagan...”

Boburning buyukligi va xalqimizga suyuqligi nimada? Gap shundaki, u ham boshqalar qatori oddiy inson bo‘lgan, lekin taqdir sinovlariga tan

berib, qo‘l qovushitirib o‘tirmadi. Yuksak darajadagi aql-idroki, tafakkuri, sabr-toqati, matonati bilan mashaqqatli hayot yo‘lini bosib o‘tib, Hind yerida buyuk Boburiylar saltanatiga asos soldi. Qaysi bir sohani olib qaramaylik, barchasida peshqadam, ildam bo‘ldi. Har doim adolatni tug‘

qilib, muborak yalov qilib qo‘lida ko‘tarib yurdi. Oddiy masalalardan tortib, mushkul holatlarga ham haqiqatga tayandi, ro‘y-rost so‘zladi. Garchi taqdir Boburni yurtidan olislariga olib ketgan bo‘lsa-da, u hamisha ona diyor, vatan nafasi bilan yashadi.

Davomi 6-beta



O‘ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSAT BORASIDAGI POZITSIYASI

mintaqada va xalqaro miqyosda barqarorlikni ta’minlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi



Habibullo SADIBAQOSEV,
siyosiy fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

“Markaziy Osiyo plus” formatining faollashuvi, yagona pozitsiyaning xalqaro maydonda ilgari surilishi mintaqaning xalqaro munosabatlar subyekti sifatidagi mavqei kuchaytirdi. Ayniqsa, Ozarbayjonning Maslahat uchrashuvlariga to‘laqonli a’zo sifatida qo‘shilishi Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasida strategik ko‘prik o‘rnatib, xavfsizlikning yangi mintaqaviy konturlarini shakllantirayapti. Bu esa global xavfsizlik tizimi barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Davlatimiz rahbari xalqaro xavfsizlikning institutsional asoslarini mustahkamlash zarurligini alohida qayd etib, Maslahat uchrashuvlarini “Markaziy Osiyo hamjamiyati” strategik formatiga aylantirish g‘oyasini ilgari surdi. Bu tashabbus mintaqada muvofiqlashtirilgan qarorlar qabul qilish, tahdidlarga birgalikda javob berish va uzoq muddatli xavfsizlik strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Xavfsizlik masalalarida O‘zbekiston yondashuvi faqat harbiy-siyosiy jihatlar bilan cheklanmaydi. Shu bois, terrorizm, ekstremizm, transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurash, Afg‘onistondagi vaziyat, ekologiya va suv tanqisligini yumshatish masalalari ham biz uchun juda muhim. Chunki mintaqamizning gullab-yashnashi va farovonligi bevosita mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlarimizga bog‘liq.

Afg‘oniston masalasida O‘zbekiston konstruktiv va pragmatik pozitsiyani egallab, ushbu mamlakatni mintaqadagi iqtisodiy va infratuzilmaga oid loyihalarga integratsiyalash, bu orqali uzoq muddatli barqarorlikka erishishni maqsad qilgan. Bu yondashuv xalqaro xavfsizlik arxitekturasida kuch ishlatishdan ko‘ra rivojlanish va hamkorlikka tayanish modelini ilgari suradi.

Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligi tashabbusi yangi O‘zbekistonning xavfsizlikni keng qamrovli, barqaror rivojlanish bilan bog‘liq holda ko‘rayotganidan dalolat beradi.

Mintaqadagi chegaralar bilan bog‘liq nizolar, suv tanqisligi, terrorizm va ekstremizm

xavfi kabi umumiy muammolar birligidagi yechimlarni talab etadi. Shu bois, yangi tahrirdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini yanada rivojlantirish borasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim maqsad va vazifa etib belgilangan.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda xalqaro huquq va mintaqadagi barcha davlatning milliy manfaatlarini inobatga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari chuqurlashtirish, Markaziy Osiyo davlatlari hududida fuqarolarning erkin harakati, tovarlar, xizmatlar va kapitalning sun’iy cheklovlarisiz aylanishiga bosqichma-bosqich erishish, umumiy sayyohlik makonini shakllantirish ishlarini davom ettirish ham juda muhim vazifa.

Bundan tashqari, Afg‘oniston bilan ko‘p qirrali va o‘zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, uning iqtisodiy tiklanishiga yaqindan ko‘maklashish, transport-tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarishga hissa qo‘shishdan mintaqadagi barcha mamlakatlar manfaatdor.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan so‘nggi yillarda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston o‘rtasidagi munosabatlar ijobiy yo‘nalish oldi. Ushbu hamkorlik Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari doirasida mintaqaviy mexanizmlar orqali muammolarga tez va konstruktiv yechim topilayotgani, MDH, SHHT va Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida hamkorlik kengaytirilayotganida namoyon bo‘ladi.

Prezidentimiz “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasida mintaqa chinakam birdamlik bosqichiga o‘tayotganini ta’kidlar ekan, bu jarayonning tasodiyi emas, balki davlatlar rahbarlarining siyosiy irodasi va uzoq muddatli mas’uliyatli tanlovi natijasi ekanini alohida qayd etdi.

Mazkur fikr mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyilini ifodalaydi: xavfsizlik majburlash yoki qarama-qarshilik emas, balki ishonch va hamkorlik bilan ta’minlanadi.



Yangi O‘zbekiston xalqaro xavfsizlik arxitekturasiga Markaziy Osiyoda ishonch



muhitini barpo etish orqali kirib kelmoqda. Jumladan, so‘nggi sakkiz yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 2017-yildan buyon muntazam o‘tkazib kelinayotgan Maslahat uchrashuvlari mintaqada tashqi vositachilarisiz muloqot an‘anasini shakllantirdi. Bu jarayon esa Prezidentimizning maqolasida yangicha siyosiy tafakkur ramzi sifatida talqin qilingan.

Aynan shu muloqot tufayli o‘nlab yillar davomida keskinlik manbai bo‘lib kelgan chegaralar masalalari uzil-kesil hal etildi. 2025-yili O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida uch davlat chegaralarining tutash nuqtasi bo‘yicha kelishuvga erishilgani mintaqaviy xavfsizlik tarixida yangi sahifa ochdi.

Xavfsizlikning iqtisodiy mezonini yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida markaziy o‘rin tutadi. Prezidentimizning mazkur

mustahkamlanayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Jumladan, so‘nggi sakkiz yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 2017-yildan buyon muntazam o‘tkazib kelinayotgan Maslahat uchrashuvlari mintaqada tashqi vositachilarisiz muloqot an‘anasini shakllantirdi. Bu jarayon esa Prezidentimizning maqolasida yangicha siyosiy tafakkur ramzi sifatida talqin qilingan.

Aynan shu muloqot tufayli o‘nlab yillar davomida keskinlik manbai bo‘lib kelgan chegaralar masalalari uzil-kesil hal etildi. 2025-yili O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida uch davlat chegaralarining tutash nuqtasi bo‘yicha kelishuvga erishilgani mintaqaviy xavfsizlik tarixida yangi sahifa ochdi.

Xavfsizlikning iqtisodiy mezonini yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida markaziy o‘rin tutadi. Prezidentimizning mazkur mustahkamlanayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Jumladan, so‘nggi sakkiz yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 2017-yildan buyon muntazam o‘tkazib kelinayotgan Maslahat uchrashuvlari mintaqada tashqi vositachilarisiz muloqot an‘anasini shakllantirdi. Bu jarayon esa Prezidentimizning maqolasida yangicha siyosiy tafakkur ramzi sifatida talqin qilingan.

Aynan shu muloqot tufayli o‘nlab yillar davomida keskinlik manbai bo‘lib kelgan chegaralar masalalari uzil-kesil hal etildi. 2025-yili O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida uch davlat chegaralarining tutash nuqtasi bo‘yicha kelishuvga erishilgani mintaqaviy xavfsizlik tarixida yangi sahifa ochdi.

Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Rossiya, Yaponiya va AQSH bilan mintaqaviy formatdagi muloqotlar Markaziy Osiyoning strategik ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi.

2026-yil 13-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida global va mintaqaviy miqyosda keskinlashib borayotgan geosiyosiy vaziyatni alohida tilga olib, turli hududlarda qurolli mojalarlar kengayishi, qurollanish poygasi jadallashuvi, xalqaro huquq normalari va diplomatik mexanizmlarning zaiflashuvi zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimini izdan chiqarayotganini ta’kidladi.

Bu esa O‘zbekistonnin tashqi kuzatuvchi sifatida emas, balki faol va mas’uliyatli ishtirokchi sifatida harakat qilishga undaydi. Zamonaviy urushlar mohiyatan tubdan o‘zgargan. Endi harbiy ustunlik faqat son va an’anaviy qurol-aslahaga emas, balki sun’iy intellekt, raqamli boshqaruv, kiberxavfsizlik, robot texnologiyalari va yuqori aniqlikdagi uzoq masofali zarba berish imkoniyatlariga tayanadi.

Tinchlik va barqarorlik eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan yig‘ilishda Prezidentimiz “proaktiv ish rejimi” tushunchasini ilgari surib, barcha soha va tarmoqlar xavf-xatarlarini oldindan aniqlash va ularga javob qaytarish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarurligini ta’kidladi.

Bu yondashuv O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlikdagi rolini passiv mudofaa bilan emas, balki barqarorlikni mustahkamlovchi, oldini oluvchi siyosat asosida bajarayotganini anglatadi.

Ushbu yig‘ilishning muhim jihatlardan yana biri shuki, davlatimiz rahbari yangi Mudofaa doktrinasini va Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish zarurati haqida so‘z yuritdi. Qayd etilishicha, yangi doktrina O‘zbekistonning hech qaysi harbiy blokka qo‘shilmasilk siyosatini saqlab qolgan holda ko‘p tomonlama diplomatiyaga tayanishi, harbiy mustaqillik

va yuqori texnologiyalarga asoslangan strategiyani ilgari surishi lozim. Bu pozitsiya O‘zbekistonnin mintaqada muvozanatlashtiruvchi va barqarorlikni ta’minlashga intiluvchi davlat sifatida namoyon etadi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi qator muammolarning bosqichma-bosqich bartaraf etilayotgani O‘zbekistonning bu boradagi faol va konstruktiv o‘rni bilan chambarchas bog‘liq. Mamlakatimizning xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, barqarorlikni ta’minlash yo‘lidagi sa’y-harakatlari qator tashabbus va tadbirlar jarayonida yaqqol ko‘rinadi. Jumladan, muntazam o‘tkazilayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari, “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi Samarqand konferensiyasi, Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi Toshkent konferensiyasi, “Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: strategik istiqbollar va foydalanilmagan imkoniyatlar” mavzusidagi Toshkent xalqaro konferensiyasi, “Markaziy Osiyoda o‘zaro bog‘liqlik: tahdidlar va yangi imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro anjuman shular jumlasidan.

Bundan tashqari, Samarqandda ilk bor o‘tkazilgan Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi sammiti, YUNESKOning birinchi marta Samarqandda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishi, Parlamentlararo Ittifoqning 150-yilligi munosabati bilan Toshkentda tashkil etilgan tadbirlar, turli mavzu va yo‘nalishlardagi xalqaro ekspert konferensiyalari, ilmiy-amaliy uchrashuvlar va diplomatik muloqotlar yangi O‘zbekistonning o‘zgarib borayotgan xalqaro xavfsizlik arxitekturasida nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda o‘zaro ishonch va ochiq muloqotni mustahkamlashga qaratilgan sa’y-harakatlar tashabbuskori ekanidan darak beradi.

O‘zbekistonning xalqaro siyosat va xavfsizlik borasida mustaqil pozitsiyaga ega bo‘lishi har jihatdan muhim. Bu, ayniqsa, bugungi xalqaro xavfsizlikka nisbatan salbiy yondashuvlar, kuch omili ortib borayotgan bir paytda yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘zgarib borayotgan xalqaro xavfsizlik arxitekturasidagi an’anaviy va noan‘aviy tahdidlarga qarshi kurashda O‘zbekiston uchun ittifoqchilik munosabatlari va strategik hamkorlik aloqalari juda zarur. Aslida, bugunga kelib xalqaro xavfsizlik arxitekturasini ikkinchi jahon urushidan keyingi tanaffusdan so‘ng yana jiddiy tusga kirmoqda.

Dunyoning turli mintaqalarida davom etayotgan o‘zaro qarama-qarshiliklar, qurolli to‘qnashuvlar, Afg‘onistondagi kelajagiga doir noaniqliklar, ayrim joylarda saqlanib qolayotgan ziddiyatli mintaqaviy mojalarlarning global tusga aylanib ketish xavfini kun sayin oshirib boryapti.

Shu bois, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizligi va barqarorligi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishda davom etishi kerak. Buning uchun, shubhasiz, mudofaa qobiliyatini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish hamda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va xavfsizligini ta’minlash shart. Kuchli O‘zbekiston — barqaror va rivojlangan Markaziy Osiyo kafolati. Mintaqa davlatlarining O‘zbekistonga nisbatan shubha va gumonda bo‘lmisligi uchun ular bilan doim muloqot, ishonchli hamkorlik hamda ochiqlikni targ‘ib qiladigan munosabatlarni saqlash zarur. Davlat tashkilotlari hamda xalq vakillari bilan samimiy hamkorlik va aloqalar mintaqaning birlashuvini va xavfsiz kelajagini ta’minlaydi.

Bugunning gapi



Nargiza ABDULLAYEVA,
xalq deputatlari Samarqand viloyati kengashi deputati

Mahalla infratuzilmasini rivojlantirish va jamiyatni taraqqiy ettirish yo‘lidagi islohotlar 2026-yilda yanada kengaytiriladi. Bu borada joriy yilga mo‘ljallangan davlat dasturi loyihasida har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Ahamiyatlisi, unda Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslar, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilish mexanizmi va yil yakuni bo‘yicha

erishiladigan aniq natijalar bayon etilgan. Dasturda mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish, iqtisodiyotni texnologik o‘shish modeliga o‘tkazish, yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish, ekologiyani asrash, suvdan oqilona foydalanish, davlat boshqaruvi hamda sud-huquq tizimini takomillashtirish kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha muhim islohotlar nazarda tutilgan.

Davlat dasturida islohotlarni faqat rejalashtirish emas, balki aniq natija va shaxsiy javobgarlik asosida amalga oshirish ko‘zlanmoqda. Shuning uchun ham ilk bor islohotlar alohida sohalar bo‘yicha ustuvor dasturlar shaklida qabul qilinib, har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq maqsad hamda mas’ul ijrochilar belgilanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, davlat boshqaruvida natija uchun ishlash tamoyili qaror topayotganini anglatadi.

Jumladan, iqtisodiy sohada texnologik o‘shish va investitsiyalarni jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, soha va tarmoqlarni texnologik o‘shish modeliga o‘tkazish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini 2030-yilgacha 240 milliard dollardan oshirish uchun zarur sharoitlar yaratib, joriy yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 167 milliard dollarga yetkazish maqsad qilinmoqda.

AHOLINING JAMIYATDAGI IJTIMOY FAOLLIGI RAG‘BATLANTIRILADI



Ekologik muvozanatni ta’minlash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturida esa ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish hisobiga 7 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish hamda atmosferaga 11 million tonna zararli modda chiqishining oldini olish belgilangan.

2026/2027-o‘quv yilidan boshlab dual ta’lim tizimi asosida har bir hududda 14 ta “yashil” texnikum ochish, ekspluatatsiya muddati o‘tgan avtomobillar utilitatsiyasini tashkil etish va uning komponentlarini qayta ishlash masalalari o‘rin olgan.

Davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini

takomillashtirish bo‘yicha islohotlarning asosiy yo‘nalishlari etib jamiyatni yuksaltirishda va dolzarb muammolarni hal etishda davlat hamda fuqarolik jamiyatining birlashgan holda faoliyat yuritishi ta’minlanadi. O‘ta og‘ir jinoyatlarga doir ishlarni sudga jamoatchilik vakillaridan iborat xalq vakillari hay’ati ishtirokida ko‘rib chiqish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da “mahalla yetilligi” faoliyatini tashkil etish jarayonini isloh qilish bo‘yicha ham qator yangiliklar rejalashtirilgan. Jumladan, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy himoya xodimi va soliq inspektorini ularning bo‘ysunuvdagi tashkilotlar taqdimnomasiga asosan tuman, shahar hokimi tomonidan lavozimga tayinlash va fuqarolar yig‘ini taqdimnomasiga asosan lavozimidan ozod etish belgilanmoqda. 500 ta mahallada sinov tariqasida “mahalla yetilligi” vakillarini ularning o‘zi istiqomat qilayotgan va yondosh mahalladan tayinlash amaliyotini joriy etish, “mahalla yetilligi” a’zolariga faoliyat yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan vazifalarni yuklashni qat’iy taqiqlash shular jumlasidan.

Shuningdek, mahalla xodimlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, ularning bilimi va ko‘nikmalarini doimiy rivojlantirish

maqsadida Mahallani rivojlantirish milliy instituti va hududiy filiallari ochiladi. Shu bilan birga, mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari va mahalla tizimidagi rahbar hamda mutaxassis kadrlarning bir yilda bir marta malakasi oshiriladi.

Mahallalar infratuzilmasini takomillashtirishga katta mablag‘ yo‘naltiriladi. Bunga yangi O‘zbekiston qiyofasidagi tuman, shaharlarni rivojlantirish, sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish sohasidagi drayver loyihalar uchun zarur infratuzilma yaratish, Toshkent shahrida mahallalarni obodonlashtirish, turizm va gastronomik ko‘chalarini kengaytirish masalalari kiritilmoqda. “Tashabbusli budget” tadbirlari, mahalla byudjeti mablag‘larini shakllantirish, 100 ta eng yaxshi soliq to‘lovchi mahallaga 2 milliard so‘mdan ajratish, ichki yo‘llarni ta’mirlash va Qoraqalpog‘iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish ham nazarda tutilgan.

Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilanganidek, islohotlarning markazida mahalla instituti turibdi. Muhimi, mahalladagi har bir muammo davlat organlari uchun aniq mas’uliyatga aylanib, uning ijrosi raqamli tizim orqali doimiy nazorat qilinmoqda.

Bu yilgi davlat dasturida fuqarolarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish maqsadida ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish mexanizmlari ham joriy etilmoqda.

Umuman olganda, islohotlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini real mazmun bilan to‘ldirish, taraqqiyotning yangi bosqichiga o‘tish, aholi faolligi va farovonligini oshirishga qaratilgan.



2026-yil 12-fevral, 29-son

Hududlar
hayoti

Loyihadan — natijaga

HAR BIR XONADONDA OBODLIK BO‘Y KO‘RSATMOQDA



“

**AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASH,
KAMBAG‘ALLIKDAN CHIQARISH
BUGUNNING USTUVOR VAZIFALARIDAN.
O‘TGAN BIR YILDA KAMBAG‘ALLIK
REYESTRIGA KIRGAN 25 OILAGA AMALIY
YORDAM KO‘RSATILDI.**

Boshlanishi 1-betda

Ishlash istagi bor, lekin yetarli malakaga ega bo‘lmagan yoshlar, xotin-qizlar “ustoz-shogird” an‘analari asosida kasb-hunarga jalb etildi. Ularning imtiyozli kredit olishiga ko‘maklashildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj 3 bemor fuqaroning davolanishi uchun amaliy yordam ko‘rsatildi. Bugun mahallamizda kambag‘al, bekor yurgan odam, bo‘sh qolgan tomorqa yo‘q.

Tadbirkor Inomjon Qurbonovning xonadonda o‘rikni quritib, bargak tayyorlash yo‘nalishidagi loyihasi tufayli bir vaqtning o‘zida 50 ga yaqin odamning bandligi ta‘minlandi. Bugun mahalladagi 50 dan ortiq xonadon egalari “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida ishlayapti. Ular tayyorlagan quruq meva nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham xaridorgir.

Faoliyatimizni to‘raqimizdagi o‘rik hosilini quritib, qadoqlashdan boshlaganmiz, — deydi tadbirkor Mansurjon Badalov. — Yaratilgan imkoniyat tufayli hokim yordamchisi tavsiyasi bilan 33 million so‘mlik imtiyozli kredit olib, ish hajmini kengaytirdi. Endi mahalladagi bog‘lar, aholi tomorqasida yetishtirilgan sarxil o‘riklarni ham yig‘ib, qayta ishlayapmiz. Bugun 10 ta doimiy va 15 ta kasanachilik asosida ish o‘rni ochdik. Har oyda 2 tonnadan ortiq mahsulot sotamiz.

Xurramobodliklar yerdan unumli foydalanishda ham ko‘pchilikka namuna bo‘lib kelyapti. Keyingi yillarda hududda ertaki sabzavotlar yetishtirish, issiqxonaga jo‘laklarni faoliyatini yo‘lga qo‘yish an‘anasi ham rivojlandi. Adhamjon Jo‘rayev ana shunday mirishkorlardan. Uch sotixli issiqxonasida ismaloq parvarishlayapti. Bir yilda uch marta ekin ekib, bosh olaypti.

— Ertaki va kuzgi bodringdan 60 million so‘mdan ortiq daromad oldik, — deydi to‘raqochi. — Uchinchi hosil sifatida ismaloq ekib parvarishlayapmiz. Ismaloq ko‘klam ne‘mati bo‘lgani uchun xaridorgir. Tarmoq faoliyatini kengaytirishni maqsad qilganmiz. Oilamizdagi to‘kin hayot, farovonlik mana shu mehnatimiz mahsulati.

Aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘allikdan chiqarish bugunning ustuvor vazifalaridan. O‘tgan bir yilda kambag‘allik reyestriga kirgan 25 oilaga amaliy yordam ko‘rsatildi. Joriy



yilda esa 100 kishini ish bilan ta‘minlash, 29 oilani kambag‘allikdan chiqarish, farovonligini oshirish choralarini ko‘rilmoqda. Bu boradagi amaliy islohotlar ijrosida “Mahalla bankiri”ning ko‘magi, qo‘llab-quvvatlovi muhim ahamiyatga ega.

— “Xurramobod” mahalla fuqarolar yig‘inida meva quritish va qayta ishlash, kulochilik, chorvachilik, tikuvchilik, shuningdek, issiqxonada ertaki sabzavot yetishtirish ommalashyapti, — deydi “Mahalla bankiri” yordamchi agenti Ma‘muraxon Oripova. — Faoliyatimiz davomida bu boradagi ishlar salmog‘ini yanada oshirish, tashabbuskorlarga amaliy ko‘mak berishga alohida e‘tibor qaratyapmiz. Joriy yilda Sayxunobod tajribasi, “Biznesga birinchi qadam”, “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida 35 ta mikroloyihani qo‘llab-quvvatlash uchun 1 milliard so‘mdan ortiq imtiyozli kredit ajratilishi ko‘zda tutilmoqda. Bu avvalgi yilga qiyoslanganda ikki hissa ko‘p.

Biror loyiha uchun kredit olmoqchi bo‘lganlarning avvalgidек bank muassasalariga borishga zarurat yo‘q. “Mahalla bankiri” va unga ko‘maklashadigan yordamchi agent tadbirkorlik faoliyatini boshlash va kengaytirishni maqsad qilgan tashabbuskor oilalarga kamida 3 tadan istiqbolli loyiha paketini taqdim etyapti.

— Meva quritish, qayta ishlash va chorvachilik yo‘nalishida tadbirkorlik qilish uchun kredit olish, biznes loyihalar ishlab chiqishda birmuncha qiyinchilik, tushumovchiliklarga duch kelayotganim bois, bu ishni boshlashga jur‘at topa olmayotgandim, — deydi Nazirjon Qodirov. — “Mahalla bankiri” bu yo‘nalishda maslahat berib, kerakli yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatdi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida 50 million so‘m imtiyozli kredit olishimiga ko‘maklashdi. Natijada 4 ta yangi ish o‘rni ochdim. Yig‘im-terim mavsumida 10 ta kasanachilik bilan ishlab, qo‘shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ldim.

Xurramobodda aholining kundalik hayot tarzi uchun kerakli qulay shart-sharoit yaratildi. Yangi uyalar, bog‘-rog‘lar barpo etildi, yo‘l yotqizildi, toza ichimlik suv, elektr tarmoqlari tortildi.

— Mahallamiz har jihatdan obod, fayzli maskanga aylandi, — deydi mehnat faxriysi G‘ulomjon Ibrohimov. — Avvallari oddiy mix, dori-darmon xarid qilish uchun ham tuman markaziga borishga majbur edik. Endi bunga zarurat yo‘q. O‘nlab savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari ishga tushirilgani uzog‘imizni yaqin, og‘irimizni yengil qildi. Qishlog‘imizda barmoq bilan sanarli yengil avtomashina bor edi. Bugun deyarli har bir oilada mashinani ko‘rasiz. Buning uchun shukr qilishimiz, yurtimizdagi tinchlik, totuvlikning qadriga yetishimiz kerak.

Bir mahallaning hayot tarzidagi loyiha va tashabbuslar haqida yana ko‘plab misollar keltirish mumkin. Muhimi, amaliy ishlar, tashabbuslar samarasidan el baha olmoqda. Ishsizlik barham topib, hududlar obod, fayzli maskanga aylanmoqda.

**Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

YANGI O‘ZBEKISTON



Bandlik

YOSH TADBIRKOR TENQURLARINI ISH BILAN TA‘MINLADI

... Hammasi shunchaki havasdan boshlandi. Zafar ish izlab yurgan paytlari yaqin o‘rtog‘i bilan uchrashib qoldi. O‘rtog‘i ish borligini aytdi. Faqat ish xorijda olinsa, biri ikki bo‘lishini ta‘kidladi. Shu yo‘sin do‘stlar kelishib, oradan ko‘p o‘tmay chet elga ketdi.

O‘zga yurt olisdan go‘zal ko‘rinadi. Zafar o‘zicha shirin orzular og‘ushida borgandi. Chet elda ham oson emas ekan. Qonuniy yo‘l bilan borishga sabri yetmagan edi. Tavakkal qilgani yomon bo‘ldi. Uch-to‘rt oy tayinli yumush bo‘lmadi. Sargardonlikdan charchadi. Issiqni issiq, sovuqni sovuq demadi. Og‘ir mehnat qaddini bukd. Topgan puli o‘zidan ortmadi. Shu holatda ancha kun yurdi. “Nima bo‘lsa-da, o‘z yurtiingda bo‘lganing yaxshi ekan”, deb o‘yladi Zafar. Birov “holing nima?” deb so‘ramadi. Arzini eshitadigan odam yo‘q. Yigit borganiga pushaymon bo‘ldi. Ketay desa, quruq jo‘at bilan qaytishga yuzi chidamaydi. Bunga jur‘at kerak. Vaqt o‘tib, bir korxonaga ishga kirdi. Ammo oyligi qilayotgan mehnatiga yarasha emadi. Chorasizlik sabab ishladi va bir yil deganda tejab-tergab yiqqan puli bilan qishloqqa qaytdi.

Bu orada tengdoshi Mehridin ham chet eldan qaytgandi. Uning ham ishi o‘ngidan kelmagan edi.

— Kecha amakim mahallamizdagi ishlab chiqarish korxonasi ishga qabul qilayotganini aytgandi. Istasang birga boramiz, — dedi Zafar Elmurodov. — Shu yerdan ishlaymiz. Maoshi ham yomon emas ekan. Balki olishar...

Taklif Mehridin Xonnazarovga ham ma‘qul bo‘ldi. Tengdoshlar birgalikda Shahrisabz tumanidagi sanoat zonasida tashkil etilgan mebel sexi sari yo‘l oldi.

Faoliyatini 2012-yilda boshlagan “Zubaydullayev Firdavs” MCHJga qarashli mebel ishlab chiqarish korxonasi bundan to‘rt yil oldin sanoat zonasiga ko‘chib o‘tgan edi. Tuman hokimligi bu yerga ko‘chishni taklif etganidayoq yosh ishbilarmon rozi bo‘lib adashmagan ekan. Sanoat zonasida tadbirkorlar

uchun barcha imkoniyat yaratilgani korxonaning yosh rahbari Firdavs Zubaydullayevga qo‘l keldi. Jumladan, yog‘ochga ishlash berish, yumshoq va qattiq mebellar tayyorlash, temir panjarali buyumlar yasash uchun alohida bo‘limlar tashkil etdi. Ustalar uchun kerakli jihozlar olib kelindi. Natijada ish hajmi va sifati oshdi. Qisqa muddatda xaridorlar safini kengaytirishga erishildi. Endi buyurtma hajmi oshib, ko‘proq mehnat qilish kerak edi. Tadbirkor yangi ish o‘rinlari ochib, yoshlarni qabul qila boshladi.

Mehridin va Zafaming ham bu yerga ishga kirganiga bir yilga yaqinlashib qoldi. O‘shanda ularni ish boshqaruvchi Nodirbek Haydarov iliq kutib oldi. Hovlidagi chorpoyga taklif qildi. Yigitlar bilan yaqindan tanishdi. Ularning avval qayerda ishlagani bilan qiziqdi. Qo‘lida hunari bo‘lsa, albatta, sexda mehnat qilishi mumkinligini ta‘kidladi. Yigitlar qanday buyumlar yasalayotgani haqida so‘radi. O‘zlari o‘tirgan bejirim chorpoya ham shu yerdan tayyorlanganini bilib, ustalarga havas qildi. Shu kundan boshlab yigitlar ishga kirishdi. Itiluvchanligi qo‘l kelib, tezda boshqa ustalar qatoridan o‘rin oldi. Hozir hatto shogirdlar ham tayyorlashmoqda.

— Ilgari biror joyda rasmiy ishchi sifatida mehnat qilmaganman, — deydi Mehridin Xonnazarov. — Maktabni bitirgach, uch-to‘rt oy bekor yurdim. Keyin mavsumiy yumushlarni bajaradigan bo‘ldim. Tayinli maosh oladigan joy bo‘lmasa, o‘voragarchilikning oxiri ko‘rinmas ekan. Ko‘pchilik qiziqitgani uchun chet elga ketdim. U yerdan qonuniy hujjat talab qilindi. Mening esa hujjatim yo‘q edi. Shu sabab biror zavod yoki fabrikaga borib ishlay olmadim. Oqibatda ko‘cha-ko‘yda o‘zim ish topishga harakat qildim. Ammo itilishimda baraka bo‘lmadi. Qaytib kelgach, shu yerga ishga kirdim. Bu yerdan barchasi ko‘ngildagidek. Tayyorlagan mahsulotimiz soniga qarab maosh belgilanadi. Yaxshi ishlasak, oyiga o‘rtacha 10-15 million so‘mgacha maosh olamiz. Rosti, buncha pulni chet elda yurib ham topolmasdik.

Sarvinoz Emazarova ham ancha yildan buyon ishsiz edi. Ikkilanib sexga borgandi, ishga qabul qilindi. Ishlab chiqarishga tez moslashdi. Ayniqsa, yog‘ochga ishlash berishda bugun undan o‘tadigan yo‘q. Har qanday elektr uskunadan qoyillatib foydalanadi. — Bu yerdan ishlayotganimga bir yilga yaqinlashib qoldi, — deydi Sarvinoz. — Avval bunday mehnat bilan shug‘ullanmaganman.

Odami astoydil intilsa, har qanday ishni bajarib ketarkan. Harakat qildim. Tez o‘rganib oldim. Asosiy ishim yog‘ochga ishlash berish. Yasayotgan har bir mahsulotimiz qancha chiroyli chiqsa, barchamiz shuncha mamnun bo‘lamiz. Qilayotgan mehnatimiz o‘zimga yoqadi. Hozir oyiga 3-4 million so‘m maosh olib, ro‘zg‘or tebratayman. Turmush tarzimiz yaxshilangan.

Ayni paytda korxonada 10 dan ortiq turdagi mebel tayyorlanib, oyiga o‘rtacha 500-600 million so‘mlik mahsulot sotuvga chiqariladi. 15 kishi doimiy, 30 nafari mavsumiy mehnat qiladi. Ularning aksariyati yoshlar.

— Barcha dastgohimiz chet eldan keltirilgan. Zamonaviy. Ish raqamli texnologiyalar orqali bajariladi, — deydi korxona ish boshqaruvchisi Nodirbek Emazarov. — Muhimi, sifatga e‘tibor qaratyapmiz. Tayyorlayotgan mebellarimiz viloyatning deyarli barcha tuman va shaharlariga sotiladi. Asosan, buyurtmalarni sotuvchilarga yetkazib berish bilan shug‘ullanamiz. Qo‘shimchasiga savdo do‘konlarimiz ham bor. Ilgari bitta xonada ishlardik. Tarmoqni kengaytirishga sharoit yo‘q edi. Sanoat zonasidan joy berilgach, yangi ish o‘rinlari ochildi. Joriy yil yakunigacha yangi loyihalarni amalga oshirishni reja qilganmiz.

Yosh tadbirkor Firdavs Zubaydullayev joriy yilda ilk bor mebellarni eksport qilishni ko‘ngliga tukkan. Ayni paytda chet ellik ishlabarmonlar bilan hamkorlik kelishuvi tuzilmoqda. Bundan tashqari, yaqinda qiymati 100 ming dollarlik yangi loyiha ishga tushirildi. Korxonada xorijning zamonaviy texnologiyasi asosida mebel uchun ishlatiladigan yumshoq mato ishlab chiqarilmoqda. Nodirbek Haydarovning ta‘kidlashicha, yumshoq mato ilgari Toshkent shahridan sotib olib keltirilgan. Yangi loyiha amalga oshirishi evaziga 30 foiz mablag‘ iqtisod qilinadi. Bundan tashqari, viloyatda ilk bor yumshoq mato ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Natijada vohadagi mebel ishlab chiqaradigan tadbirkorlar ham yumshoq matoni shu yerdan olishi mumkin. Bu yo‘l xarajatini kamaytirib, tannarxni arzonlashtirish uchun yaxshi imkoniyat. Muhimi, yangi ish o‘rinlari ko‘payib, yosh tadbirkor istaganidek, tengqurlari bandligi ta‘minlandi.

**Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



Kambag‘allikni qisqartirish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash kabi muhim vazifalarni yangi O‘zbekistondagi inson qadrlari ulug‘lashga qaratilgan islohotlar markazida turibdi. Jumladan, shu yil 23-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham shunga doir qator topshiriqlar berildi.

Navoiy viloyatida xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka jalb qilish va ijtimoiy muammolarni hal etish borasida muayyan ishlarni bajarilayapti. Jumladan, 2025-yilda “Ayollar daftari”da ro‘yxatida turgan 30 ming 49 xotin-qizga ijtimoiy yordam ko‘rsatildi. Ularning muammolari ijoiy hal etildi. Shu orqali 10 ming 946 xotin-qizning bandligi ta‘minlandi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun 848 xotin-qizga 13 milliard 47 million so‘mlik imtiyozli kredit ajratildi. Boquvchisini yo‘qotgan 4926 ehtiyojmand ayolga bir martalik moddiy yordam berildi.

— 2025-yilda xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasi bo‘yicha tizimli ishlar qilindi, — deydi Navoiy viloyati hokimi o‘rinbosari Malika Mamadiyorova. — Jumladan, I va II guruh nogironligi bo‘lgan yoki tezkor tibbiy muolajaga muhtoj 10 ming 535 xotin-qizning masalasi o‘rganildi. Ijtimoiy himoya yo‘nalishida 189 ayolning yashash xonadoni ta‘mirlanib, 275 xotin-qizning ijara kompensatsiyasi to‘lab berildi. To‘rt ayol uy-joy bilan ta‘minlandi. Qaramog‘ida nogiron farzandi bo‘lgan 2515 ayolga manzilli moddiy yordam ajratildi. Shuningdek, ehtiyojmand 23 ayolning xonadoniga quyosh paneli o‘rnatildi. Sog‘lig‘ida muammosi bor 115 xotin-qizga jarrohlik amaliyoti o‘tkazilib, sog‘lom hayotga qaytishiga ko‘maklashildi. Shuningdek, opa-singillarimizning iqtisodiy faolligini oshirish islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan. O‘tgan yili Navoiy viloyatida 20 ming 886

xotin-qiz kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi. “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish” dasturi doirasida 754 ayol 130 milliard so‘mlik kredit hisobidan faoliyatini boshladi. Biznesini kengaytirish istagidagi 1256 tadbirkorga esa 219 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratilib, yangi ish o‘rinlari ochildi.

Ana shunday islohotlar samarasini Navbahor tumani misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Ushbu hududda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari orqali minglab xotin-qiz ish boshlab, daromad manbaiga ega bo‘ldi. Mamlakatimizdagi imkoniyatlar ayollarga ish topish emas, ish o‘rni ochish imkonini bermoqda. Bu borada belgilangan dasturlar orqali xotin-qizlar biznes g‘oyalarni amalga oshirish, faoliyatini kengaytirish va yangi ish o‘rinlari ochishga muvaffaq bo‘laypti.

— Navbahor tumanida 122 ming kishi bor. Ularning 60 mingi xotin-qizlar, — deydi tuman hokimi o‘rinbosari Gullola Ergasheva. — 2025-yilda 1856 xotin-qiz tadbirkorlikni rivojlantirish va turli kasb-hunarlar bo‘yicha o‘qitildi. Sayxunobod tajribasi asosida 400 nafari bilimini oshirdi. Shuningdek, tadbirkorlik yo‘nalishida o‘qib, biznes boshlamog‘chi bo‘lgan ayollarga imtiyozli kredit berildi. Jumladan, 1200 dan ziyod xotin-qizga 20 milliard so‘mlik kredit ajratildi. Bundan tashqari, “Hamroh ayol” tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi orqali 8 nafariga 1 milliard 150 ming so‘m berildi. Yetakchi tadbirkorlarga ishsiz 153 hunarmand ayol birlashtirilib, bandligi ta‘minlandi. Ularning

ijtimoiy himoyasi ham doimiy e‘tiborda. O‘tgan yili 50 bemor xotin-qizning tibbiy muolajasi uchun yordam berildi. 10 nafarida murakkab jarrohlik amaliyoti bepul o‘tkazilib, sog‘lom hayotga qaytishiga ko‘maklashildi. 2026-yilda ham bu boradagi ishlar tizimli davom ettirilmoqda.

Shuningdek, tumanda chevarlik, hunarmandlik va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar ham o‘z o‘rnini topmoqda. Kichik sexlar tashkil etilib, ishsiz ayollarning bandligi ta‘minlanayapti.

Kim uchundir baxt sog‘liqda, kim uchundir esa halovatta. Nargiza O‘rinova baxtsiz hodisaga uchraganida salomatlik qanchalik katta baxt ekanini anglagan bo‘lsa, yakka-yolg‘iz farzandi ulg‘aygani sari ko‘p yillar bitmay chala yotgan imorati tufayli halovati ham yo‘q edi. Bu mustahpar ayol ham muammolari bilan o‘z holiga tashlab qo‘yilmadi. — Birinchi guruh nogironiman. Bir farzandim bilan yolg‘iz yashayman. Boquvchimiz yo‘q, — deydi Nargiza O‘rinova. — Uyimizda yashash sharoitimiz juda og‘ir edi. Lekin doimiy ijtimoiy yordam berildi va e‘tibordan chetda qolmadik. Sog‘lig‘imni tiklash uchun ham ko‘maklashildi. Muhimi, abgor holatdagi uyimiz o‘tgan yili qaytdan qurilib, zamonaviy ta‘mirlandi. “Mahalla yetiligi” ham doim holimizdan xabar olib turibdi.

Qiziltepa tumanida ham xotin-qizlar bilan ishlashning yangi tizimi samara bermoqda.

ISLOHOTLAR INSON TAQDIRINI O‘ZGARTIRGANDA...



Mehr mehvari

Muammolarni mahallada aniqlab, tezkor va manzilli hal etish orqali ayollar turmushida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xorijda ishlab, oilasidan yiroq yurgan xotin-qizlarning Vatanga qaytib, tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgani islohotlarning insonparvarlik mohiyatini teran ochib beradi.

Daromad topish maqsadida uydan, farzandlaridan olisda — chet elda mehnat qilgan Layli Shuhratova sog‘inch iztirobi va boshqa qiyinchiliklardan charchab, yurtimizga qaytdi. “Mahalla yetiligi” maslahati bilan xotin-qizlar tadbirkorligi uchun yaratilgan sharoitlar haqidagi gapini eshitib, qaytishga qaror

imtiyozlardan foydalanib, ish boshladi. Dastlab ijaraga olingan kichik binoda qandolatchilikni yo‘lga qo‘ydi. Ishlab chiqarish hajmi kundan kun ortib, buyurtmalar ham ko‘payib bordi. Natijada ishlab chiqarishdan tashqari shirinliklarni o‘zining do‘konida sotadigan bo‘ldi.

— Farzandlarimizni ota-onamga qoldirib, turmush o‘rtog‘im bilan birga pul topish ilinjida besh yil xorijda ishladik, — deydi Layli Shuhratova. — “Mahalla yetiligi” va boshqa mutasaddilarning yurtimizda xotin-qizlar tadbirkorligi uchun yaratilgan sharoitlar haqidagi gapini eshitib, qaytishga qaror

**G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Nuqtayi nazar

MILLATNI BIRLASHTIRUVCHI KUCH
yoxud milliy tizimga tatbiq etilayotgan
YAPON METODIKASI**Otabek BOZOROV,**
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa
doktori

Boshlanishi 1-betda

Jamiyatni birlashtirishning yapon metodikasidan foydalanish tashabbusi uch yil avval Farg‘ona viloyatida yo‘lga qo‘yilib, ijobiy natijaga erishilgan. Endi esa bu tajribaning Namangan viloyatida ham joriy etilayotgani vaqt talabi, jamiyat ehtiyoji va tarbiyani zamonaviylashtirish yo‘lidagi mantiqiy rivojlanish bosqichidir.

Namangan mamlakatimizning milliy qadriyatlar, odob, ibrat, mehr-oqibat va jamoatchilik hissi kuchli saqlangan hududlaridan. Bunday muhitda yapon tarbiya texnologiyalari o‘zbek milliy ruhiyati bilan uyg‘unlashib, yanada tez va yuqori natija berishi tabiiy.

Ahamiyatlisi, mazkur maktablarning moddiy-texnik bazasi mahalliy byudjet hisobidan mustahkamlanayotganidir. Bu yoshlar tarbiyasida davlatning roli kuchayayotganini ko‘rsatadi. Chunki yaxshi natija faqat g‘oyani emas, zarur sharoitni ham talab qiladi.

Tarbiya va ma‘naviyat nuqtayi nazaridan qaralsa, yapon madaniyati — kattaga hurmat, oilaga sadoqat, or-nomus, mehnatsevarlik, tartib-intizom, jamoa, el-yurtga xizmat qilish kabilar ko‘p jihatdan o‘zbek qadriyatlariga o‘xshaydi. Bu fazilatlar o‘zbek milliy tarbiyasining ham umurtqasidir. Shuning uchun yapon metodikasini



joriy qilish milliy tarbiyani zamonaviy texnologiyalar yondashuvlar bilan mustahkamlaydi. Yapon tarbiya metodikasi shiddatli globallashuv jarayonida milliy tarbiyani, uning tizimli metodikasi, xulq modellari saqlab qolish madaniyatidir. Bu metodikaning Uzuksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi bilan maslagi bitta — vatanga sodiq, ma‘naviy yetuk, yuksak malakali, hamkorlikka qodir, global raqobatda g‘olib bo‘ladigan avlodni tarbiyalash.

Shu ma‘noda, bitta maktabdan boshlangan bu tashabbus ertaga butun viloyatga, mamlakatga ta‘sir qiladigan bunyodkor pedagogik harakatga aylanishi mumkin. Chunki taraqqiyot insondan boshlanadi. Inson qanday bo‘lishi esa tarbiyaga bog‘liq.

Ham iqtisodiyot, ham
tarbiyadan boshlangan mo‘jiza

“Yapon mo‘jizasi” ham iqtisodiyot, ham tarbiyadan boshlangan. Uning yuksak rivojlanish sirlaridan voqif bo‘la borganimiz sari Prezidentimizning “Biz yaxshi O‘zbekistonda barpo qilishda kuchli iqtisodiyot va kuchli ma‘naviyatga tayanamiz” degan g‘oyalari bot-bot yodimizga tushadi.

Ikkinchi jahon urushidan mag‘lub bo‘lib chiqqan Yaponiyada keng ko‘lamli islohotlar boshlandi. 1955-yildan tarbiya va targ‘ibot

tizimini isloh qilishga kirishildi. Bu islohot bir necha yilda yangi insonlarni yetishtirdi. Yangi insonlar “yapon mo‘jizasi”ni yuzaga chiqardi. Ishchi-xizmatchi, tadbirkor, muhandis, rahbar sifatida maydonga chiqqan yangi Yaponiya yoshlari faqat bilimli emas, balki intizimli, jamoaviy, fidoyi, mas‘uliyatli, daxldor, Vatan manfaatini his qiladigan insonlar edi. Ular Kokutay milliy g‘oyasi talab qilgan fazilatlar bilan qurollangandi. Milliy g‘oya, milliy tarbiya jamiyatni birlashtiruvchi ma‘naviy dastak bo‘ldi.

Keksa yapon pedagoglari bilan suhbatlashsangiz, ular sizga milliy birlashuv yo‘lida iroandaning etni juniktiradigan misollarini aytib beradi. Ikkinchi jahon urushidan keyin yapon ishchilarida mehnat, sadoqat, Vatanga xizmat qilish fazilatlarini birinchi o‘ringa chiqqan.

Ishchilarga atigi bir parcha non va piyozli sho‘rva berilar, ular 10 soat ishlar, ochlikdan qo‘l-oyoqlarida darmon, quvvat qolmas ekan. Ana shunda oyoqda tura olmay qolgan ishchilar sexning shiftiga arqon o‘tkazib, halqa qilib, qo‘ltig‘i bilan osilib, ishini davom ettirgan ekan. Bu misol faqat og‘ir mehnat tarixi emas, balki yapon tarbiya metodikasi xalq xarakterini qanday shakllantirganining tarixiy isboti hamdir.

Albatta, bugun bunday mehnat sharoitini ideal deb qabul qilish mumkin emas. Lekin mazkur misolning mazmuni bitta: ma‘naviy tarbiya insonni yengilmas qiladi.

Bunday birlashgan milliy iroandaning jamoaviylik, mas‘uliyatning manbasi bor, albatta. 1958-yilda Yaponiya hukumati ishlab chiqqan tarbiyaviy yo‘riqnoma ko‘ra, maktab o‘quvchilariga hamda yoshi katta aholiga targ‘ibot-tashviqot orqali 22 ta tayanch fazilat tizimli ravishda o‘rgatilgan. Bu esa kuchli ma‘naviyatni shakllantirgan. Ushbu misol ham davlatimiz rahbari ilgari surayotgan “Kuchli iqtisodiyot + kuchli ma‘naviyat” g‘oyasining tarixiy haqiqat ekanini tasdiqlaydi.

Tajriba siri — ko‘rsatib
o‘rgatishda

Shu o‘rinda “Yaponiya. Uni qanday tushunish kerak?” kitobi muallifi Ikeno Osamu keltirgan bir tajriba haqida to‘xtalib o‘tsak.

Yapon onalari va yevropalik onalarga bolalari bilan birga piramida yig‘ish vazifasi



qizlarini o‘zi bilan birga bozor, hashar, to‘y-tomosh, yig‘inlarga olib yurgan. Ular hatto “tarbiya” degan so‘zni ham ko‘p ishlatmagan. Ko‘rsatib, o‘rgatgan. Aslida, bu tarbiyaning oltin qoidasi — yuz marta gapirmay, bir marta ko‘rsatib tarbiyalashdir.

So‘nggi yillarda bizda ham tarbiyada og‘zaki yondashuv kuchaygani sezilyapti. Boladan yaxshi xulq kutamiz, lekin o‘sha xulq qanday bo‘lishini ko‘rsatib bermaymiz. “Mana bunaqa qil!” deb aytamiz. “Nega tushunmaysan?” deb achchiqlanamiz. Bolaning qo‘liga uramiz. Unga tanbeh berib, qalbini ezib, tarbiya qildim deb o‘ylaymiz. Ammo bu usul haqiqiy tarbiya emas, balki tarbiyaga qarshi ishlaydigan ruhiy bosimdir. Yapon metodikasi mana shunga qarshi turadi.

Nega aynan ushbu yurt
uslubu?

Yaponiya eng rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin olgan, o‘rtacha IQ ko‘rsatkichi bo‘yicha yuqori o‘rinda turadigan, milliy o‘zligini saqlab qolgan holda farovonlikning eng yuqori darajasiga erishgan mamlakat. Bu davlat o‘z tarixi va milliy o‘ziga xosligini saqlashda ko‘p mamlakatlar uchun ibrat hamda namuna hisoblanadi.

Kunchiqar yurt taraqqiyotining bir muhim xususiyati bor. U rivojlangan davlatlar xususlarini o‘zlashtirgan, ammo ko‘r-ko‘rona ko‘chirmagan. O‘rgangan, tahlil qilgan, o‘z sharoitiga moslashtirgan, keyin jadal joriy etgan. Ana shu yondashuv Yaponiyani iqtisodiy va ma‘naviy jihatdan ulkan taraqqiyotga olib chiqdi.

1955-yildan boshlab Yaponiyada tarbiya va ma‘rifat sohasida islohotlar kuchli iqtisodiyot va kuchli ma‘naviyat prinsipi asosida yo‘lga qo‘yildi. Bu jamiyatning “Qanday qilib millat o‘zini yo‘qotmay, zamonaviylashadi?” degan savoliga javob edi. Yaponiya bu savolga mashhur formulasi bilan javob berdi: “Yapon ma‘naviyati + G‘arb bilimi = Yapon mo‘jizasi”.

G‘arbdan bilim, texnologiya, fan va boshqaruv tizimi o‘rganildi. Ammo milliy qadriyatlar, jamoaviylik, mehnatsevarlik, daxldorlik, fidoyilik, Vatan manfaati uchun shaxsiy manfaatdan voz kechish kabi fazilatlar milliy tarbiya orqali mustahkam saqlandi. Yangilanish milliy o‘zlikning kamayishi emas, aksincha, milliy xarakterni kuchaytirish hisobidan amalga oshirildi.

1958-yilda Yaponiya hukumati yangi milliy tarbiya yo‘riqnomasini tasdiqladi. Unda aholi va yoshlar orasida 22 ta tayanch fazilatni tarbiyalash maqsadi qo‘yildi. Bu fazilatlar shunchaki “odob-axloq qoidalarini” emasdi. Ular, birinchi navbatda, fuqaroni bilim olish, mehnat qilish, mas‘uliyatni his etish, jamoat manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yishga safarbar qilgan ichki ma‘naviy drayverga aylandi. Ana shu inson omili 1973-yilda “Yaponiya mo‘jizasi”ni vujudga keltirdi. Bu jarayon hozir ham davom etmoqda.

Yaponlar axloqiy fazilatlarining asosiy qismi 14 yoshgacha shakllanishini ta‘kidlaydi. Bu yosh oraliq‘ida inson xarakteriga poydevor qo‘yiladi. Shuning uchun Yaponiyada tarbiya “bir umrlik vaksina”, deyiladi. Bir marta to‘g‘ri “emlansa”, insonda umr bo‘yi muhofaza mexanizmi ishlab turadi.

Shunday ekan, bugunning eng muhim chaqiriqlaridan biri tarbiyani og‘zaki shakldan amaliy shaklga o‘tkazish, “aytdim” degan

taskindan “ko‘rsatdim” degan mas‘uliyatga o‘tishdir. Ana shu yo‘l bilangina biz ham milliy taraqqiyotimizda ma‘naviy asosni kuchaytirib, yangi O‘zbekistonning yangi inson kapitalini tarbiyalay olamiz.

Taraqqiyot vositasi

Dunyoda har bir davlatning taraqqiyot formulasi bor. Kimdir bu formulani neft, gaz, oltin bilan, kimdir portlar, logistika, tabiiy resurslar bilan izohlaydi. Ammo XXI asr haqiqatini hayotning o‘zi isbotlab berdi: tabiiy boyliklar emas, inson kapitali mamlakatni taraqqiyotga eltadi. Inson kapitali esa faqat bitta mexanizm — tarbiya bilan yaratiladi.

Shu ma‘noda, Yaponiya tajribasi nafaqat iqtisodiy mo‘jiza tarixi, balki tarbiya orqali millat xarakterini shakllantirish haqidagi jonli darslikdir. Uning sabog‘i shundaki, to‘g‘ri tarbiya faqat axloq emas, iqtisodiy raqobatbardoshlik, ijtimoiy barqarorlik, davlat xavfsizligi va innovatsion taraqqiyotning asosiy sharti hamdir. Mana shunday xulosalarni mustahkamlaydigan faktlar, fikrlar va amaliy tavsiyalar yaponiyalik pedagoglar bilan suhbatlarda yana bir bor o‘ta ravshan ko‘rindi.

“Xulq tartibga solinmagan joyda kelishmovchilik odatga aylanadi”. Dotoku (xulq o‘rgatish) san‘ati bo‘yicha murabbiy, yapon pedagogi Goto Mikakoning biz bilan suhbatda aytdan quyidagi fikri har qanday jamiyat uchun juda qattiq ogohlantirishdir: “Bugun dunyo bolalarining xulqi tartibga solinmagan. O‘zini qayerda, qanday tutishning maromiy xulq modellari bolalarga ko‘rsatilmagan, mashq qildirilmagan, ularning avtomatik, proaktiv odatlariga aylantirilmagan”, deydi u.

Mikakoning ta‘kidlashicha, “o‘qituvchi — o‘quvchi”, “o‘quvchi — o‘quvchi”, “ota-ona — farzand”, “aka — uka”, “opa — singil”, “fuqaro — fuqaro”, “er — xotin”, “vatandosh — vatandosh” o‘rtasidagi kelishmovchiliklar ularga



maromiy xulq modellari o‘rgatilmaganidan kelib chiqadi.

Yapon pedagogi bolalarga bilimdan oldin fazilat berish kerak, aks holda, bu bolalar katta

bo‘lgach, hamkorlik qilish, jamoada ishlash, til topishish, muvaffaqiyatli shaxsga aylanish yo‘lida to‘siqqa uchraydi deydi. Bu esa faqat bir bola yoki oilaning muammosi emas, balki mamlakatning ijtimoiy-ma‘naviy muhitiga ta‘sir qiluvchi strategik muammo.

Bu fikrni to‘g‘ri anglasak, haqiqat oddiy: har bir kelishmovchilikning ildizida qoidalar emas, amaliy ko‘nikma yetishmasligi yotadi. Aslida, bola qaysi vaziyatda nima deyish, qanday tinglash, qanday so‘rash, qanday rad etish, qanday uzr so‘rash, qanday sabr qilishni tushunish orqali emas, ko‘rib va takrorlab o‘rganadi. Agar u bunday xulq modelini ko‘rmasa, mashq qilmasa, xulqi avtomatlashmaydi. Avtomatlashmagan, beqaror xulq stress paytida buziladi. Buzilgan munosabat esa ziddiyatga aylanadi. Ziddiyatlar odamlarni, xalqni birlashtirmaydi, aksincha, parokanda qiladi.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bugungi murakkab zamonada yoshlarimizni turli sinovlarga chidamli, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalash, xalqimizni birlashtirishga da‘vat etdi. Biz uchun hozirgi global taraqqiyot davrida, dunyoda o‘ta keskin va tahlikali jarayonlar yuz berayotgan bugungi kunda milliy birlik nihoyatda muhimligini ta‘kidladi. Jumladan, “Donishmand bobolarimizning “Birlashgan — o‘zar, birlashmagan — to‘zar” degan hikmatli maqoli bor. Chindan ham, qarang, kimki birlashdi — hayotda o‘zdi, g‘alabaga erishdi. Kimki birlashmadi — to‘zib, yo‘q bo‘lib ketdi. Tarix davomida qanday og‘ir sinovlarga duch kelmaylik, avvalo, birdamlikdan kuch oldik. Mashg‘aqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo‘lib qiyinchiliklarni yenggan. Oila — oilaga, qo‘shni — qo‘shniga ko‘mak berib yashagan. Biz mana shunday o‘ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak”, dedi.

Mana shu masalada ham milliy birlikning yapon tajribasiga hamma tan beradi. Tahlil qilinsa, bu milliy birlik ham tarbiya natijasi bo‘lib chiqadi.

Yelpig‘ichdagi kod

Yapon pedagoglari o‘zbekistonlik hamkasblariga chiroqli yelpig‘ich sovg‘a qildi. Ma‘lum bo‘lishicha, bu oddiy sovg‘a emas, pedagogik sovg‘a ekan. Ular yelpig‘ichni tarbiyaning teran falsafasi sifatida talqin qilib, bunday dedi: “Tarbiya — yelpig‘ichning dastagi. Fanlar — yelpig‘ichning burmalari”, deb tasavvur qiling. Barcha fan tarbiyadan boshlanadi, tarbiyaga borib ulanadi. Ularni tarbiya — dastak to‘plab, yig‘ib, birlashtirib turadi. Agar tarbiya bo‘lmasa, ular sochilib ketadi. Shuning uchun bolalar bog‘chasi, maktab, avvalo, tarbiya bilan shug‘ullanishi kerak. Ana shunda bolalarga “Yaxshi o‘qi”, “Kitob o‘qi”, deyishga zarurat qolmaydi. Chunki tarbiyali bola yomon o‘qishdan uyaladi, or qiladi”.

Aslida, bu — butun ta‘lim tizimini qayta quradigan prinsip. Agar har bir fanning yakuniy manzili fazilat bo‘lsa, demak: matematika faqat hisoblash emas, aniqlik, sabr, mas‘uliyatni tarbiyalaydi; adabiyot faqat matn emas, empatiya, estetik did, milliy idrokni shakllantiradi; tarix faqat sana emas, daxldorlik, vatanparvarlik, xulosa chiqarishga o‘rgatadi; jismoniy tarbiya faqat mashq emas, iroda, intizom, jamoaviylik, milliy birlashuvni mustahkamlaydi.

Bugun O‘zbekistonda ta‘lim islohotlari, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi maqsadlari,

inson kapitaliga qaratilgan dasturlar ijrosi uchun yapon yelpig‘ichi metodikasi juda zarur. Chunki bu metodika bizga “Qanday qilib yoshlarning bilim, kompetensiyalarini milliy maqsadga yo‘naltirish mumkin?” degan global savolga javob beradi.

Yechim tarbiyani “qo‘shimcha ish” emas, pedagogik jarayonning markaziy maqsadi sifatida tashkil qilishda. Yaponiya metodikasining ko‘rsatgani shu: tarbiya markaz bo‘lsa, ta‘lim sifati o‘z-o‘zidan oshadi. Chunki o‘quvchilar o‘zidagi mehnatsevarlik, innovatsion fikrlash, iroda, tirishqoqlik ko‘nikmalarini bilim olishga qaratadi. Yomon o‘qishdan or qiladi.

Oramizda “Tarbiyani qo‘y. Bilim olsa bo‘ldi”, deyidiganlar ham bor. Ularga ulug‘ allomalarimizning mana bu fikrini eslatamiz: “Tarbiyalamay berilgan bilim telbaning qo‘liga berilgan qilichdir”. Bu nima degani? “Tarbiyasiz a‘lochi” o‘z bilimini shaxsiy g‘arazda, boshqalarning zarariga, korruptsiya maqsadida ishlatadi. Bu bilan xalqning tinkasini quritadi.

Shuning uchun yapon metodikasidan foydalanib, halol-pok, Vatanga sodiq farzandlarni yetishtirish O‘zbekiston uchun qator muhim natijalarni kafolatlaydi.

Avvalo, maktab muhiti sog‘lomlashadi: o‘qituvchi — o‘quvchi”, “o‘quvchi — o‘quvchi” ziddiyatlari kamayadi, chunki xulq modellari mashq qilinadi.

Ikkinchidan, Soft skills (yumshoq ko‘nikmalar) tizimli shakllanadi: jamoada ishlash, mulqot, kelishish, mas‘uliyat, liderlik kabi ko‘nikmalar “parallel” emas, “asosiy” natijaga aylanadi.

Uchinchidan, ilgma munosabat o‘zgaradi: bola “o‘qish kerak” degan bosim bilan emas, “bilmaslik — men uchun uyat” degan ichki, tarbiyaviy nozir, vijdon yo‘rig‘i bilan harakat qiladi.

To‘rtinchidan, jamiyatning ijtimoiy-ma‘naviy muhiti mustahkamlanadi: tarbiya maktabdan tashqarida, mahallada, oilalarda bir xil tushuniladi va mahallani rivojlantiradi, jamiyatni yuksaltiradi.

Xullas, nafaqat Yaponiya, balki Sharqning “yo‘lbars davlatlari” o‘z taraqqiyotining boshida iqtisodiy innovatsiyalar bilan bir qatorda dunyodagi eng kuchli ta‘lim-tarbiya texnologiyalarini olib kelgan, modifikatsiya qilgan va shundan keyin yuksalgan.

O‘zbekiston ham ana shu sinalgan yo‘ldan bormoqda. Bugungi global konvergent yondashuv milliy ma‘naviyatni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirib, “Milliy tarbiya + yuksak texnologiyalar = O‘zbek mo‘jizasi” tarzida taraqqiyotga xizmat qildiradi.


Yapon yelpig‘ichi bizga bu tarixiy haqiqatning ramzi bo‘lib qoladi. Ya‘ni majoziy aytganda, fanlar bu — barmoqlar. Barmoqlarni birlashtiradigan dastak esa tarbiya. Shu dastakni mustahkamlasak, ta‘lim, iqtisodiyot, jamiyat parokanda bo‘lmaydi, birlashadi. Murojaatnomada qayd etilganidek: “Bugungi kunda jamiyatimizda turli xil fikr va qarashlar bo‘lishi tabiiy. Bu — demokratizatsion birlamchi talabi. Ammo millati, tili va dinidan qat‘i nazar, butun el-yurtimizni birlashtiradigan ulug‘ bir g‘oya bor. U ham bo‘lsa, Vatan manfaati, xalqimiz manfaatidir”.

Bu dasturiy fikr mamlakatimiz yetakchisining vatanparvar birlikka qaratilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri, strategik talabining oliy ifodasi. Shunday ekan, mana shu vatanparvar birlikni tashkil etishning ilmiy-metodik tarbiya asoslarini jahon tajribasi asosida boyitib borish har bir pedagogning kasbiy mas‘uliyati bo‘lmog‘i kerak.



14-fevral — Zahiriddin Muhammad
Bobur tavallud topgan kun

Qayot va ijodi – ibrat maktabi



Boshlanishi 1-betda

Bobur ota-bobolarimizdan meros bo'lib avloddan avlodga o'tib kelgan adolat, haqiqat, rahm-shafqat, saxovat kabi chinakam insoniy tuyg'ularni o'zining qalb go'zalligi, aql-zakovati bilan uyg'unlashgan holda yuzaga chiqara olgan chinakam insonlardan biridir.

Bori elg'a yaxshilik qilginki,

mundin yaxshi yo'q,

Kim degaylar dahr aro qoldi

falondin yaxshilik

bayti uning bosh shiori edi. U do'st-u dushmaniga bir xil muomalada bo'ldi, do'stning sadoqatini qo'ldirdi, dushmaning mardligiga tan berdi. Yaqin kishilari vafosizlik qilganda ham taqdir hukmiga topshirdi, ularni tahqirlamadi, sazoyi qilmadi, aksincha, Yaratgan izmiga havola etdi.

Shu bois, Bobur xarakterida bugungi yosh avlodga ibrat bo'lgulik jihatlar istagancha topiladi. Uning ijodi vatanparvarlik, xalqparvarlik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik g'oyalari bilan sug'orilgan.

Bugungi shiddatli, tahlikali zamonda jahon ahliga o'mak bo'lgulik fazilatlar uning xarakterida jamuljam edi. Jangohlarda umri o'tganiga qaramasdan, "Devon" tartib berdi, "Harb ishi", "Mufasssal", "Mubayyin", "Musiga ilmi" kabi asarlarni yaratdi, "Xatti Boburiy"ni kashf qildi, Xoja Ahror Valiyning "Validiya" asarini turkiyaga o'girdi.

U hind, afg'on yerlariga qurol ko'tarib, ularni talash, parokanda qilish, dahshat solish, boylik orttirish uchun emas, Yaratganning izmi bilan ularni birlashtirish, tarqoq qabilalarni yagona davlat bayrog'i ostiga to'plash maqsadida bordi. Garchi o'sha davr taqozosi bilan ona yurtini tashlab ketgan bo'lsa-da, umr bo'yi unga intilib yashadi, vatanidan uzoqqa ketishni "yuzi qoralik" deb bildi, o'zga yurtda shoh bo'lsa ham o'zini benavo, miskin, g'ariblar qatoriga qo'shdi. Uning barcha asarlarida bu ruh ustunlik qiladi.

Bobur ruboiylarining birida bunday yozadi:
Ko'pdin berikim, yor-u diyorim yo'qtur,
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

Bunday haroratl, o'tli, ko'ngil isyoni ufarib turgan misralarni bitish hammaning ham qo'lidan kelayermaydi. Vatan, ona diyor sog'inchi, ushalmas bu kabi orzu-armonlar shoimning "G'urbat ichra, ey ko'ngil, eldin vafo



Abdulhay SOBIROV,
Andijon davlat universiteti
professori, filologiya fanlari
doktori

istarni qo'y, Chun vafosin ko'rmding hargiz diyoru yorning", "Dema Boburga netarsen, bosh olib ketmak ne? Tengrining xosti mundaq esa men netgaymen?", "Yuz jabr-u sitam ko'rgan, ming mehnatu g'am ko'rgan, Osoyishe kam ko'rgan mendek yana bir bormu?" kabi satrlarida butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi.

Bugun jahonning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy manzarasi tubdan o'zgarib, insoniyat ko'p qutbli dunyoga o'tayotgan bir paytda yosh avlod, umuman, millatimiz uchun Bobur kabi ibrat bo'lgulik ulug' bobolarimiz borligidan, ularning o'g'itlari, o'lmas asarlari hozirgi notinch zamonda to'g'ri yo'l topishimizda mayoq vazifasini bajarayotganidan har qancha faxrlansak arziydi.

"Boburnoma"da Bobur Movarounnahrda shaharlarni, nabotot va hayvonot olamini, tarixiy shaxslarning xarakterlarini tasvirlaganda, ularga cheksiz mehr-muhabbat, farzandlik tavozesi bilan yondashadi.

Xususan, Andijon haqida "Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lar. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm ermas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo'lmas. Eli turkdur. Shahar va bozasorida turki bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam birla rosttur", deydi.

Samarqand haqida esa bunday yozadi: "Bu rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamoqdur. Uzumi va olmasi va qovuni va anori, balki jami mevasi xo'b bo'lar. Xo'b nonvogliqlari

va oshpazliqlari bordur. Olamda yaxshi qog'az Samarqanddin chiqar".

To'g'risi, bu kabi haqqoniy satrlarni yozish, xolis baho berish uchun shu yurtini sevish, uning har bir qarich yerini, bu yerlarning xossalarini mukammal bilish zarur edi. Hazrat Boburda bu fazilatlarning barchasi mujassam bo'lgan.

Bobur xarakterida unga temuriylardan meros bo'lib o'tgan to'g'rilik, rostlik, har bir ishga adolatpeshalik bilan qarash fikri kuchli edi. Amir Temurning "Kuch adolatdadir" shiori unga ham o'tgan bo'lib, har bir hodisaga yondashganda shu jihat shoiriga madad bo'ldi. Bu haqda Bobur "Boburnoma"da otasi Umarshayx Mirzodan ibrat bo'lib qolgan bir voqeani qalamga oladi:

"Adolati bu martabada ediki, Xitoy karvoni keladurganda, Andijonning sharqiy tarafidagi tog'larning tubida ming o'yuk korvoni andog' qor bosdikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib muhassillar yiborib, korvoning jami jihatini zabt qildi. Har chandikim vorisi hozir yo'q erdi, bovujudki ehtiyot saxlab, bir-ikki yildin so'ngra Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarini solim topshurdi".

Otasidan o'tgan bu fazilatga Bobur taxtda o'tirganida ham, qo'lida qilich tutib jangga kirganida ham, g'amli kunlarida ham, shodon onlarida ham sodiq qoldi.

Masalan, Qorabog' yaqinidagi Oqsaroy degan joyda "Seydim Ali darbonning bir o'bdon navkari bironing bir ko'za yog'ini tortib olg'ani uchun eshikka kelturib tayovqlatim, tayovq ostida o'q joni chiqdi", deb yozadi. Qalot degan joyda Hindistondan kelgan savdogarlarni "Aksar barin bo'ldilarkim, mundaq yog'yilik mahalda yog'iy viloyatiga keladurganni talamoq kerak, men rizo bo'lmadim. Dedimkim, savdogarning ne gunog'i bor?" deya ularga ozor yetkazishlariga yo'l qo'yamaydi.



Bu voqeadan nafaqat biz yoki turkiy dunyo, balki butun jahondagi taraqqiyparvar insonlar ibrat olsa arziydi. Hozir ayrim davlatlar bir-biriga tishini qayrab, yangidan yangi urush o'choqlarini yoqayotgan bir paytda Bobur asarlari adolat, haqiqat, erk ovozi bo'lib yangrashi turgan gap. Dunyo olimlarining Boburga qarab intilayotganining sababida ham shu haqiqat yotibdi. Undan o'rganadigan joylar juda ko'p.

Ayniqsa, Boburning halolligi, e'tiqodi pokligi, o'g'rismo'zligi temuriy shohlarga, shahzodalarga, sarkardalarga, ularning

kelganida o'z yaqinlarining, temuriylarning ham o'z tomonlarini ayamay ochib tashlagan, g'anamlarining esa ezgu ishlariga tan bergan.

Bu donishmand, mard, jasur insonlarga xos fazilat. Boburda bu fazilatning eng oliy ko'rinishi mujassam edi. Boburiylar saltanatining shakllanishi va rivojlanishida ham aynan mana shu jihat poydevor bo'lib xizmat qilgan. Bundan biz faqat o'rganishimiz kerak.

Boburo'z zamonasining ilg'or fikrli, ma'rifatli kishilaridan biri sifatida yaratish, yangi binolar, bog'u rog'lar, saroylar qurish bilan mashg'ul bo'ldi. O'z yurti Andijonu Samarqandda qura



Hakim YO'LDOSHEV olgan surat.

oshiradi, joylar tanlab, bog'lar barpo etadi, atrofini obod qiladi.

Boburning yaratuvchanligi uning Farg'onadan mevali daraxt ko'chatlarini afg'on, hind yerlariga olib borib ekitirishida ham ko'rinadi. Shu haqda bunday yozadi: "Kobul va kentlarida sardariy mevalaridin uzum va anor va o'ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjil va bodom va yang'oq ko'ptur. Men olubolu niholi keturib ekturubmen, yaxshi olubolur bo'ldi va hanuz taraqqiyda edi". Bunday holat ilm-fanda iqlimlashtirish deb ataladi.

Bobur yashagan davr jangu jadallarga, to's-to'polonlarga to'la, shiddatli bir davr edi. Har bir yigit kishi chavandozlik, qilichbozlik, kamonbozlikdan boxabar bo'lishi talab etilardi. Bobur saroy tarbiyasini ko'rgan shaxs sifatida bularning barchasidan nafaqat xabardor bo'lgan, balki u o'sha davmning mard va qo'rqmas, matonatli, shijoatli jasur jangchilaridan, sarkardalaridan, urush taktikasini mukammal egallagan sara lashkarboshilaridan biri edi. Ot minishda, qilichbozlikda, suzishda, kamon otishda unga teng keladigan navkarlar kam bo'lgan. Bobur janglarda toblangan, purtajriba, harb ishining hadisini olgan hukmdorlardan sanaladi.

"Boburnoma"dan olingan "Mahkam zarb sovuq edi. Ul martabada sovuq edikim, ushul ikki-uch kunda ikki-uch kishi bu orada sovuqning shiddatidin o'lub edi. Bir ariq suyidakim yoqalari qalin muz to'ngub edi, o'rtasi suvning tezligi jihatidin yax bog'lamaydur edi, bu suvg'a kirib g'usl qildum. O'n olti qatla suvg'a cho'mdum. Suvning sovuqlig'i xeyli ta'sir qildi", degan satrlar Boburning jismoniy jihatdan toblanganini, baquvvatligini ko'rsatib turibdi. U janglarda yuz, balki ming bor yog'iy bilan yuzma-yuz kelgan, ammo qo'rqib ortiga chekinmagan, har vaqt dushmaniga tik boqib, ularga qarshi mardonavor kurashgan. Umuman olganda, biz — bugungi avlod Zahiriddin Muhammad Boburdan har tomonlama o'mak olsak arziydigan jihatlar bisyor.

Uchinchi Renessansiga poydevor qo'yayotgan xalqimiz uchun Boburning hayoti va ijodi haqiqiy ibrat maktabi vazifasini o'taydi, desak aslo adashmaymiz.

KO'RGAZMALAR HISOBOT UCHUN EMAS, BALKI MA'NAVYIY EHTIYOJDIR

Badiiy akademiya, muzeylar, tasviriy san'at galereyalarida tashkil etilayotgan ko'rgazmalar haqida turli qarash va fikrlar mavjud. Ayrimlar ularni reja va hisobot uchun o'tkaziladigan rasmiy tadbir sifatida qabul qilsa, boshqalar bu maskanlarni xalq ma'naviyati uchun zarur ozuqa, estetik tarbiya va ijodiy tafakkur manbai deb biladi. Aslida, ko'rgazmalar bu ikki tushunchadan ancha keng va chuqur mazmunga ega madaniy hodisadir.



Ziyo maskanlari

Bugun Surxondaryo viloyatida 2 ta muzey va bitta galereya faoliyat yuritmoqda. Bu ziyo maskanlarida har yili yuzga yaqin ko'rgazma tashkil etiladi.

Termiz shahrida O'zbekiston Badiiy akademiyasi badiiy ijodkorlar uyushmasining art-galereyasi mavjud. Shahar markazida barpo etilgan ushbu inshoot Surxondaryoda

ijod qilayotgan tasviriy va amaliy san'at namoyandalarning yanada samarali ishlashi uchun xizmat qilib kelmogda.

Viloyatda bugun O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasining 20 dan ziyod a'zosi faoliyat yuritmoqda. Ikki qavatli muhtasham binoda turli ko'rgazmalar o'tkazish uchun barcha sharoit yaratilgan.



— Yoshlarga muzey va ko'rgazmalar haqida ilk tushunchalar oiladan boshlab berilishi, jarayon maktabgacha va

umumta'lim o'ttirilishi lozim. Avvalo, yoshi kattalar, mutasaddilar, muassasalarida davom musavvirlar yoshlarga

tariximiz, buyuk vatanparvar qahramonlar, ilm-fan namoyandalari haqida doimo so'zlab berishi juda muhim. Shu tariqa bolalar ko'rgazmadagi eksponatlarni tomosha qilish barobarida zavq oladi, tegishli tartib-qoidalarga amal qilishni o'rganadi, — deydi O'zbekiston Badiiy akademiyasi Badiiy ijodkorlar uyushmasi art-galereyasi boshlig'i Ro'zimurod Norboyev. — Ulug' yozuvchi Abdulla Qodiriyning "Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir" degan gapini ko'pchilik yaxshi biladi. Shu jihatdan ko'rgazmalar tashkil etish farzand-u nevaralarimizning boy qadriyatlarimiz, san'atimizdan xabardor etadi. Art-galereyada Surxon vohasida yashagan rassomlarning turli yillarga oid ijod namunalari qatorida 1980-yillarda tasvirga olingan suratlarini uchratish ham mumkin. Qariyb 50 yillik tarixni o'zida aks etgan ushbu fotojamlanma eski Termiz manzaralarini yodga soladi. Ularni tomosha qilish orqali vaqt nafasi, o'tmishning sukanatli qadimini his etish mumkin.

— Ushbu suratlar faqat xotira bo'libgina qolmay, bugun bilan kechaning taqqoslash imkonini beradi. Shu orqali yangilanayotgan Termizning qiyofasi, zamonaviy ko'rinishi va taraqqiyot yo'li yaqqol namoyon bo'ladi. O'tmish va bugunni bog'lagan ushbu suratlar voha markazidagi ulkan o'zgarishlarni ham o'zida namoyon etadi, — deydi Ro'zimurod Norboyev.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, muzey va galereyalarda o'tkazilayotgan ko'rgazmalarda ishtirok etayotganlar yana qayta kelishini ta'kidlaydi. Bu tomoshabinda ziyoga intilish rasmiy majburiyat emas, balki ichki ma'naviy talab ekanini ko'rsatadi.

— Taqdir taqozosi bilan xalqning buyuk donishmandlari, ulug' bobolarni ulg'aytirgan ikki daryo oraliq'iga Afg'onistondan kelib yashab, Termizdagi universitetlardan berida faoliyat yuritayman, — deydi o'qituvchi Ahmad Shikib Muslihi. — Tasviriy san'at, teatr san'ati, adabiyotga jamiyatlar doim turlicha munosabat bildirib kelgan. Kimlardir ularni ortiqcha daxmaza deb hisoblasa, boshqalar san'atni inson ruhiyatining bir ko'rinishi, mavhumlik va oliylik o'rtasidagi yaratq deb bilgan. Bu borada hamma davrda ham doimiy mushohadalar, bahs-munozaralar bo'lgan. Gapning qisqasi shuki, ziyoga intilish bor jamiyatda rivojlanish, ma'naviy yuksalish bo'ladi. O'zbekiston misolida buni ko'ryapman.

Muzeylar va tasviriy san'at galereyalaridagi ko'rgazmalarni faqat hisobot uchun tashkil etiladigan tadbir sifatida baholash noto'g'ri. Ular — jamiyat ma'naviy hayotini boyituvchi, estetik didni shakllantiruvchi va inson qalbini tarbiyalovchi muhim madaniy manzillardir.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalar tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-246.
30829 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy